

G'ARB ALLOMALARI FALSAFIY-SIYOSIY FIKRLARINING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI.

O'ZDITU,
Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-kurs talabas,
Sharifjonov Jalilbek Anvarovich

Anotatsiya: Mazkur maqolada XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida G'arbda bir qator olimlarning falsafiy-siyosiy qarashlari yoritilib, unda olimlarning madaniyat va jamiyat to'g'risida, inson va uning onggi, insonning mohiyati, uning ichki olami, insonning ongsizlik darajalarini tahlil qilganligiga guvoh bo'lamiz.

Kalit so'zlar: madaniyat, ma'rifat, johillik, kishilik jamiyati, jamiyat, tarix, komillik, axloq, qonuniyat, ijtimoiy g'oyalar, yetuklik, ma'naviyat.

Abstract: This article covers the philosophical and political views of a number of scientists in the West at the end of the 19th and the beginning of the 20th century. We will witness scientists analyzing culture and society, people and their consciousness, people's essence, their inner world, levels of people's unconsciousness.

Key words: culture, enlightenment, ignorance, human society, society, history, perfection, ethics, legality, social ideas, maturity, spirituality.

Аннотация: В данной статье рассматриваются философско-политические взгляды ряда учёных Запада в конце 19-начале 20 века, мы станем свидетелями того, как он анализировал уровни.

Ключевые слова: культура, просвещение, невежество, человеческое общество, общество, история, совершенство, этика, законность, социальные идеи, зрелость, духовность.

Kirish va dolzarbligi. Yangi davr g'arb falsafasi xilma-xil fikr va qarashlarga boy bo'lib, insonlar hayotida, fan taraqqiyotida, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda muhim voqealar yuz berdi. Bu muhim voqealar insonlarning dunyoga bo'lgan munosabatini o'zgartirib, yangi ilmlarni egallash va hayotga tatbiq qilishga undadi. Tabiatshunoslik tez rivojlanganlidan insonlar kosmosga chiqdilar, mikro va makro dunyonni tadqiq qilish kabi holatlar ro'y berdi. Bu davr G'arb falsafasi falsafadagi axloq, borliq, ong, bilish, tarix falsafasi kabi an'anaviy masalalarga o'zgartirish kiritib, ularni yangicha tahlil qildi.

Uyg'onish davridan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda ma'naviy yuksalish davom etdi. Bu davr falsafiy qarashlarida tabiat, jamiyat va insonga turli

jihatdan falsafiy yondashishning o‘ziga xos holatda ishlab chiqilish jarayoni nihoyasiga yetkazildi va bu davrdagi falsafiy fikr va qarashlar “klassik falsafa” yoki “an’anaviy falsafa” deb ataldi. Klassik va noklassik falsafaning farqi eng avvalo aql muammosida ko‘rinadi. Va bu davr falsafasi diqqat markazida aql muammosi turadi. Jumladan, Gerbert Spenser, Fridrix Nitsshe, Zigmund Freyd, Osvald Shpengler va h.k lar olimlar o‘z asarlarida tarix, madaniyat, tabiat va boshqa masalalarini mutlaqo yangicha asnoda o‘z fikrlarini asoslab berdilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolada Osvald Shpenglerning “Amerika madaniyati”, “Inson va texnika”, “Xristianlikning ikkinchi ming yilligida dunyo masalalariga oid lavhalar”, “Hal qiluvchi davrlar”, “Falak gardishi va uning dunyo tarixidagi ahamiyati”, “Yevropa quyoshining so‘nishi”, Fridrix Nitsshening “Tarixning hayot uchun foyda va zaruri to‘g‘risida”, “Rixard Vagner Bayretda”, “Erkin tafakkur sohiblari uchun qo‘llanma”, “Axloqning mohiyati”, “Zardusht tavallosi” va “Hokimiyatga intilish”, Artur Shopengauerning “Olam iroda va tasavvur sifatida”, «Ko‘z va gullar to‘g‘risida», «Axloqning asosi», «Etikaning ikki asosiy muammosi», «Din haqida», «Parerga va Paramipomenon», «Sevgi metafizikasi» kabi asarlarni uchratamiz.

Tahlil va natijalar. Buyuk nemis faylasufi, tarixchisi, hayot falsafasi namoyondalaridan biri, “Amerika madaniyati”, “Falak gardishi va uning dunyo tarixidagi ahamiyati”, “Xristianlikning ikkinchi ming yilligida dunyo masalalariga oid lavhalar”, “Hal qiluvchi davrlar”, “Inson va texnika” kabi qator asarlar muallifi O.Shpenglerdir (1880-1936). Uning eng qimmatli asari “Yevropa Quyoshining so‘nishi” hisoblanadi. Shpengler mazkur asarini Birinchi Jahon urushi ta’sirida yozadi. Bu asar asosan madaniyat haqidagi ta’limotini ilgari suradi. Shpengler falsafasining markaziy mavzusi-tarix, lekin tarix madaniyat orqali tushuntiriladi. Har bir madaniyat aylanma harakatga ega, ya’ni tug‘iladi, ravnaq topadi va halokatga yuz tutadi. Yevropa madaniyati ham oxirgi uchinchi bosqichini o‘z boshidan kechirmoqda. Tarix taqdirga o‘xshaydi. Har bir madaniyat o‘z qobig‘ida joylashgan, boshqa madaniyatga o‘z yutuqlarini bera olmaydi.[1] U an’anaviy tarixshunoslik fanlarini chegarasini o‘zgartirib, boshqa madaniyatlar ichida Yevropacha madaniyatning o‘rnini aniqlashga harakat qiladi. Shpengler fikriga ko‘ra, madaniyat o‘lib borib, o‘rnini svilizatsiya egallaydi. Madaniyatdan svilizatsiyaga o‘tish o‘z o‘rnida ijodkorlikdan unumsizlikka, tiklana borishdan qotib qolishga, qahromona ishlardan oddiy ishga o‘tishni anglatadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, olim madaniyat yo‘q bo‘lib keta olishini va bu bir qancha salbiy oqibatlarga olib kelishini, insonlar yaratuvchanlikdan, o‘rganishdan to‘xtashini, rivojlanish butunlay tugashini va hech qanday o‘zgarish yuz

bermasligini, insoniyat batamom tubanlikka yuz tutishini yuksak mahorat bilan yoritib bergen ekan. Ya’ni svilizatsiya kirib kelishi bilan badiiy va adabiy ijodning keragi bo‘lmay qoladi.

Shpengler ta’limotida madaniyatdan svilizatsiyaga o‘tish davri G‘arb dunyosi uchun XIX asarda ro‘y berdi va uning “so‘nishi” boshlandi. Shpengler o‘zining qimmatli “Yevropa quyoshining so‘nishi” asarida Yevropa madaniyati taqdirini ochib berishga qaratgan. Asarning boshlanishida u “hali hech kimning miyasiga tarixni tushunishdagi bunday inqilobiy fikr kelmagan”, -deydi. U o‘zining tarixiy ta’limotini o‘zigacha bo‘lgan ta’limotlarga qarshi qo‘yadi. Lekin ayrim g‘oyalarini Nitsshe va Gyotedan olganligini tan oladi. [2]

Demak, Shpengler o‘z asarida faqatgina Yevropa madaniyatini tasvirlash bilan cheklanmadni, katta mahorat bilan tarix orqali g‘arb xalqining o‘ziga xosligi va yagonaligini ko‘rsatib, avval hech qaysi faylasuf yoki olimlar bildirmagan fikrlar bilan o‘z asarini boyitdi.

Har bir madaniyatning hayotini taqdir boshqaradi. Taqdirni, Shpengler fikricha, his qilish kerak. Ya’ni inson tabiatni kuzatishlar bilan o‘rganishi mumkin, lekin tarixchi faqatgina tarixchi bo‘lib tug‘ilishi kerakligini aytadi. Tarixning mazmuni insonning ruhiyatida namoyon bo‘ladi. Madaniyat inson ruhiyatining tashqi ko‘rinishidir degan fikrlarni ilgari suradi.

Shpenglerning ta’limoticha, insonda haqiqiy bilim yo‘q, lekin shu ilmni bilishimizga ishonch - e’tiqodimiz bor. Bizning tashqi dunyo to‘g‘risidagi barcha tasavvurimiz ilohiy xususiyatga egadir. Demak, fan din va mifologiya bilan tengdir.

Ya’ni kengroq ma’noda aynan diniy hissiyot insonni tashqi olamga bo‘lgan munosabatini yaqqol namoyon etadi. Ungacha, ongning ilk shakllanishida bolada ham, ibridoib insonda ham tabiat bilan, tashqi dunyo bilan inson o‘rtasida ziddiyat vujudga keladi. “...inson insonga aylangandagina o‘zining koinotda yolg‘izligini anglaydi,” -deb yozadi Shpengler. Shunda insonda qo‘rquv hissi uyg‘onadi, o‘lim oldidagi qo‘rquv – cheksizlik oldidagi qo‘rquvdir. O‘lim to‘g‘risida o‘ylashning boshlanishi yuqori ongning paydo bo‘lganligidan dalolat beradi. Har bir din, har bir falsafa bu masala bo‘yicha o‘z yechimiga ega...

Bundan ko‘rinib turibdiki, bilim aslida mavjud bo‘limgan narsa ekanligini, shu aslida “mavjud bo‘limgan narsa”ni bilish uchun insonda moyillik bor ekanligini, bu moyillik esa insonda ishonch-e’tiqod tufayli paydo bo‘lishini ta’kidladi. Insondagi diniy hissiyot ularni atrof-olamni o‘zlaricha anglashga undaydi.

Protestant ruhoniysi oilasida tug‘ilgan, hayot falsafasi namoyondasi, XX asr jahon falsafiy tafakkuri o‘sishiga katta hissa qo‘shgan buyuk nemis faylasuflaridan biri Fridrix Nitsshening (1844-1900) “Tarixning hayot uchun foyda va zaruri

to‘g‘risida”, “Rixard Vagner Bayretda”, “Erkin tafakkur sohiblari uchun qo‘llanma”, “Axloqning mohiyati” kabi hayot falsafasiga oid asarlari, ayniqsa, “Zardusht tavallosi” va “Hokimiyatga intilish” kabi asarlari muhim ahamiyatga ega. Nitsshe Artur Shopengauerning “yovvoyila to‘dasi” masalini o‘qigach, jamiyatning ichki mohiyati nimadan iborat ekanligini anglab oldi. Shundan keyin u Shopengauerning ashaddiy muhlisiga aylandi. Chunki Shopengauerning ko‘plab fikrlari Nitsshening fikrlariga yaqin edi. Shunday qilib, Nitsshe 1874-yilda “Shopengauer murabbiy sifatida” asarini yozadi.

Nitsshening axloq falsafasida shunday yozadi: “Axloq jamiyatni yemiruvchi kuchlardan saqlash va himoya qilishning foydali vositasidir. Axloq qo‘rqinch va umiddan (kuchliroq vositalar jumlasiga jannat va do‘zaxni ixtiro qilish ham kiradi) foydalilaniladi. Oxir-oqibatda majbur qilish holatlari bizning ichimizga vijdon ko‘rinishida qaratiladi.” [3]

Demak, Nitsshe jamiyatda axloq bo‘lsa, hamma narsa o‘z joyida bo‘ladi, zarar beruvchi narsalar ta’siri kam bo‘ladi. Axloq mavjud bo‘lgan jamiyatda, bir so‘z bilan aytganda, rivojlanish, tartib-intizom bo‘ladi. Jamiyatda axloqni bor qilish uchun yaxshi va yomon narsalar qilinishi zarur. Ya’ni yomon ishlar deganda, jamiyatdagi insonlarni qo‘rqtish, yaxshi ishlar deganda, rag‘batlantirish va bu orqali ularga umid berish tushuniladi. Bora-bora bu holatlar takrorlanishi natijasida bu jamiyatdagi insonlar uchun mafkuraga aylanadi va shu holatda axloq paydo bo‘ladi. Fridrix Nitsshe axloq tushunchasini o‘zining axloq falsafasida katta mahorat bilan yoritib bergen.

Nitsshe tasavvuridagi inson millati, elati, irqi, tanasining rangi yoki diniy e’tiqodi bilan belgilanmaydi. U kim bo‘lishidan qat‘i nazar – inson! Nitsshening insonga munosabati bitta istakka yo‘naltirilgan – har tomonlama yetuk va barkamol Insonni ko‘rish. Kishilik jamiyatida g‘oyatda pok va yuksak ma’naviyatli, armonsiz va to‘laqonli odamlardan iborat ma’rifatli uyushma bo‘lmog‘i lozim. [4]

Bundan ko‘rinib turibdiki, olimning fikricha, har bir inson teng huquqlidir va har bir inson komillikkha intilib yashashi kerak. Agar har bir inson ilm-ma’rifatga ega bo‘lsa, shundagina kishilik jamiyatni mukammal, ya’ni kamchiliklarsiz shakllanadi.

Nitsshe falsafasida har bir individ, har bir tirik jon – inson o‘z mohiyatiga, qadriyatiga ega. Demak, har bir inson o‘zining go‘zal estetik va axloqiy olamiga ega bo‘lmog‘i, uning va faqat uning asosida hayotini qurmog‘i lozim. [5]

Mutafakkirning fikricha, har bir inson o‘zining individual olamiga ega. Ya’ni har bir insonning o‘z hissiyotlari, o‘z qadriyatlari mavjud. Shunday qilib, har bir inson o‘zidagi takrorlanmas xususiyatlari orqali o‘zining hayotini shakllantiradi.

Fridrix Nitsshe falsafasi bevosita ko‘p qirrali, ayni paytda g‘oyat jozibador hissiyotlar oqimidagi insoniyat tafakkurida to‘ntarish yasagan falsafa hisoblanadi. Unda doimiy ravishda, uzlusiz tarzda yetuklik sari intilayotgan inson ma’naviy olamining, ziddiyatlarga to‘la ichki dunyosining beqiyos qudratini ko‘rish mumkin. Nitsshe falsafasida asosan yaxshilik va yomonlik, komillik va axloqsizlik, ma’rifat va xurofot, ma’naviyat va jaholat o‘rtasidagi farqlar yuksak tarzda tushuntirilgan. Nemis faylasufi Fridrix Nitsshe madaniyat va davlat o‘rtasidagi qarama-qarshilikka asosiy ahamiyat beradi. Aynan shu aristokratik estetika nuqtai nazaridan Nitsshening davlat va siyosatga nisbatan tez-tez bo‘ladigan tanqidiy hujumlarini, ularning yuqori madaniyatga zarar yetkazuvchi haddan tashqari va zararli ekstremal tomonlarini anglash kerak.

Uning qimmatli “Zardusht tavalloosi” nomli asari nafis so‘z san’ati mutaxasisi sifatida emas, balki payg‘ambar so‘zi sifatida yaratdi. Makur asar mumtoz nemis falsafasi an’analari chegarasidan chiqib, ezoterik asar sifatida yaratildi. Nitsshe qalami orqali payg‘ambar Zardusht so‘zga kiradi. Olimning mazkur asari uning boshqa asarlaridan butunlay farq qiladi. Bu asarda Sharq falsafiy fikrining ta’siri bilinib turadi.

Nitsshening Zardusht xudosi qadimgi xalqlarnikidek qotib qolgan, o‘zgarmas, to‘xtab qolgan xudo emas. “Yangi va eski bitiklar” nomli bo‘limida, Zardusht aytadiki, xudo amri abadiy, o‘zgarmas so‘zlar emas, balki ular inson harakati uchun, ishlari uchun qalbida iloh alangasi yonib turuvchilar uchun da’vadir. [6] Shunday qilib, Zardusht xudosi asta-sekin u bilan birga qo‘shiladi. Lekin bu qo‘shilish oxirgacha tugamaydi, chunki hali Zardusht qalbida mutlaq xotirjamlik hukmron emas. Bu hodisa sokinlik bilan uning suhbatida namoyon bo‘ladi.

Demak, Fridrix Nitsshening ta’kidlashicha, Zardusht xudosi insonlar foydasiga o‘zgarib boraveradi. Kengroq ma’noda bu din o‘zi yaralgan, hech qaysi dindan qismlar olinmagan va o‘ziga xosligi yoritib o‘tilgan.

Zardusht – erkin ruh timsoli. Hamma narsa unga bo‘ysungan. Vaholanki, u o‘zi ustidan hukmronlik qila oladi. Zardushtning o‘zi axloqdir. U insonlarni sevadi va ularni komillikka erishishini xohlaydi.

Nitsshening bu asari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatiga ega. Uzoq olmon yurtida yashab, ijod qilgan muallifning bundan ikki yarim ming yil muqaddam bizning zaminda yashagan tarixiy shaxs – Zardushtni o‘z asariga qahramon qilib olishi har qanday o‘quvchi e’tiborini tortmasdan qolmaydi.

“Zardusht tavalloosi” – kuchli insonni tarbiyalashga qaratilgan asar. Sharq mumtoz adabiyotida «komil inson», ruslarda «sverxchelovek» deyiladi. Asarda “a’lo odam” ko‘rinishida keladi. Asar to‘lig‘icha ramziy, timsollar asosida yaratilgan.

O‘qiyotganda buni albatta e’tiborga olish kerak. Chunki Nitsshe dunyo tan olgan mutlaq haqiqatlarning oyog‘ini osmondan qilib tashlaydi, favqulodda shiddat o‘quvchini batamom shoshib qo‘yadi.

Artur Shopengauer (1788–1860) – nemis faylasuf-irrasionalisti, XIX asr postklassik falsafasining yorqin vakili. Artur Shopengauerning ko‘plab kuzatuvlari va fikrlari bugungi kunda zamonaviy va dolzarb ko‘rinadi. Faylasufning eng buyuk asarlaridan biri bu "Hayot maktabining hikmatlari" kitobidir. Undan tashqari A.Shopengauerning "Ko‘z va gullar to‘g‘risida", "Olam iroda va tasavvur sifatida", "Etikaning ikki asosiy muammosi", "Din haqida", "Parerga va Paramipomenon", "Sevgi metafizikasi" kabi asarlar muallifidir.

Shopengauer o‘z asarlarida hayotning mohiyatiga oid masalalarni diqqat markaziga qo‘yadi va olim o‘zining iroda to‘g‘risidagi ta’limotini eng asosiy rolda hisoblab, uni kishilar hayotiga, ularning tug‘ilishi va o‘limiga daxlsiz deb hisoblaydi. Uning irodasi hayotga bo‘lgan irodadir. U inson tomonidan his etilmaydi va hech qanday qonuniyatlarga bo‘ysunmaydigan, stixiyali jarayon ekanligini ta’kidlaydi. Tabiatning abadiyligi va undagi cheksiz va mutlaq irodaning namoyishi insonga ongli mavjudot sifatida birmuncha tasalli berishi mumkin.

Shopengauer uchun o‘tmishning inson uchun hech qanday ahamiyati yo‘q. Uning fikricha, o‘tmish ham bora-bora xayolga aylanadi. Va inson butun e’tiborini hozirgi zamonga qaratishi lozimdir. Zero, Shopengauer agar inson o‘zining hozirgi hayotidan qoniqsa, u inson o‘zini baxtli hisoblashi mumkin bo‘ladi. Chunki u o‘zida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan kelajak uchun qo‘rquvini yengan. Bu qo‘rquv kelajak uchun raxna solmaydi. Ammo o‘lim oldidagi qo‘rquv ko‘pincha hayotdan qoniqmaganlik natijasida paydo bo‘ladi. Ya’ni qachondir inson noto‘g‘ri yashayotganligini anglab yetsa, u o‘z vazifasini bajarmasdan turib, o‘lib ketishidan qo‘rqadi. Agar inson hayotda o‘z o‘rnini topsa, unda ko‘ngli xotirjam bo‘lib, hayotdan qoniqadi.

Xulosa. Shunday qilib, g‘arb mutafakkirlari fan ravnaqiga butunlay yangicha fikrlar kiritdi. Biz ularning asarlarida ular irodani aql hisobidan ustun qo‘yishga intilishini ko‘rishimiz mumkin. G‘arb mutafakkirlar muayyan bo‘lgan fikr-mulohazalarga qarshi chiqdi va bu amaliy siyosatda millatchilikning ittifoqchisiga aylanadi.

Bu davr g‘arb falsafasi XVIII asr g‘oyalalarini davom ettirdi va rivojlantirdi deyishimiz ham mumkin. Bu davrda falsafiy tafakkur fan va ijtimoiy amaliyot sohasida erishilgan yutuqlarni umumlashtiradi.

Yangi davr g‘arb falsafasida biz g‘arb allomalarining fikr-mulohazalarida umuminsoniylikning ustuvorligi, har bir inson o‘z qadriyatiga ega ekanligini, har bir

inson komillikka intilishi kerak ekanligini, har bir inson dini, e'tiqodidan qat'i nazar teng ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Eng assosiysi, yangi davr g'arb falsafasi turli yo'naliш va oqimlarni keng qamrab oladi. O'z navbatida bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi va hozirgacha bo'lган falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

Ammo shunday bo'lishiga qaramasdan, yangi davr g'arb falsafasida ham bir qancha muammolar bor. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning "biz ko'п masalalarda g'arb faylasuflarining fikrlari bilan, ayniqsa, individualism, egoizm qarashlarini ilohiylashtirish bilan kelishmasligimiz mumkin. Lekin ularni hisobga olishimiz keraklisini e'tirof, keraksizini inkor etishimiz zarur"- degan fikrlarini ham keltirishimiz lozimdir. [7]

Bir so'z bilan aytganda, yangi davr g'arb falsafasi o'ziga xos tarzda rivojlandi.

Birinchidan, falsafadagi borliq, ong, bilish, tarix falsafasi kabi an'anaviy masalalarga o'zgartirish kiritib, ularni yangicha tahlil qildi.

Ikkinchidan, avval umuman falsafada tilga olinmagan yoki butunlay ishlatilmagan masalalarni babs maydoniga olib chiqdi.

Uchinchidan, g'arb allomalari insonning qadri, erki, haq-huquqlari mavzusini ko'tardi.

Yangi davr g'arb tarixida ko'plab rivojlanishlar yuz berdi. Ya'ni insonlar yangi, avval umuman xabari bo'lмаган narsalarni o'rgandi. Sanoat, texnika rivojlandi.

Umumiy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, deyarli barcha g'arb allomalari insonning tabiiy masalasini o'rta ga qo'ya boshladilar. Ular ijtimoiy munosabatlar insonning tugamas taraqqiyotga erishuviga ishonch hosil qilib, uning asosiy kuchi ma'rifat, fan va inson aqli deb hisobladilar.

Xullas, yangi davr g'arb falsafasi keying davr rivolanishiga katta zamin yaratdi. Bu davr falsafasi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ya'ni bu davr mutafakkirlarning asarlari dunyoning bir qancha nuqtalarida tarjima qilinib, o'rganilayotganligi diqqatga sazovordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

- [1]. Ruzmatova G, Karimov R, "Falsafa tarixi: Eng yangi davr g'arb falsafasi", 109-bet, T., "Universitet", 2017.
- [2]. "G'arb falsafasi" Q.Nazarov, 577-bet, T., Sharq, 2004.
- [3]. "Falsafa tarixi", G.Skirbekk, N. Gile, 539-bet, T., Sharq, 2002.
- [4].N.Jo'rayev. "Taxayyul, tasavvur, tafakkur". 193-bet, T., "Yangi asr avlodи", 2015-yil.
- [5].O'sha manba. 193-bet.
- [6]. Ruzmatova G, Karimov R, "Falsafa tarixi: Eng yangi davr g'arb falsafasi", 81-bet, T., "Universitet", 2017.
- [7].Karimov I. A., "Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir", 27-28-betlar, T., "O'zbekiston", 2000.